

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ILMIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Po‘latova Dildora Aziz qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish

*ICESCO” kafedrası dotsenti **Muhabbat Agzamova***

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy-ma‘rifiy merosi va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni, xususan, uning “Padarkush” dramasi orqali ilgari surilgan tarbiyaviy g‘oyalar, ilmning ahamiyati, milliy ong va axloqiy yetuklik masalalari, yoshlarni ilmga intilishi, ota-onaga hurmat, ma‘naviy poklik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, “Padarkush”, jadidchilik harakati, ma‘rifatchilik, ta‘lim-tarbiya, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati va adabiyotini boshlab bergan kishining teatr bilan shug‘ullanmasligi, san‘atning xalq ommasiga eng samarali ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bu turiga katta e‘tibor bermasligi mumkin emas edi. O‘zining tarix oldidagi vazifasini chuqur his qilgan adib 1911-yilda birinchi o‘zbek dramasi – “Padarkush”ni yozib, Turkistonda yangi san‘at turiga tamal toshini qo‘ydi¹. Mamlakatimizda uzoq asrlar davomida xalq teatri, faoliyat olib borgan va tomoshabinlarga madaniy xizmat ko‘rsatib, bayramlar, to‘y-hashamlarning quvnoq o‘tishiga munosib hissa qo‘shib kelgan. Behbudi va uning jadid safdoshlari boshlab bergan teatr professional teatr san‘atining dastlabki bosqichi bo‘ldi. Bu harakat yangi g‘oya va qarashlar bilan boyitilgan bo‘lib, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy jihatdan uyg‘otish, milliy ong va ma‘rifatni yuksaltirishga xizmat qildi. Teatr orqali nafaqat

¹ N.Karimov / Mahmudxo‘ja Behbudi. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B.38.

jamiyatdagi illatlar ochib berildi, balki xalqni tarbiyalash, ularni yangicha hayotga chorlash ham maqsad qilib qo'yildi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi bu sohada katta ahamiyatga ega bo'lib, yangi davr o'zbek dramaturgiyasining asosini tashkil etdi. Drama orqali u jaholat, nodonlik va beparvolikning jamiyatga yetkazadigan zararini ochib berdi. Shu tariqa, teatr jadidlar faoliyatida faqat san'atning bir ko'rinishi bo'lib qolmay, milliy uyg'onish va ijtimoiy-siyosiy kurashning samarali vositasiga aylandi.

"Padarkush" asari haqida yozilgan maqolalarning birida asar real hayotda yuz bergan voqea asosida yaratilgani qayd etilgan. Ushbu fikrning haqiqatga nechog'li mos yoki zid ekanidan qat'i nazar, XX asr boshlarida o'z farzandining tarbiyasiga e'tibor bermagan otalar ham, yoshlikning yomon odatlariga berilgan, ishsiz, dangasa va maishatparast boyvachcha davralarida ulg'aygan bolalar ham oz bo'lmagan. Behbudiyn "Padarkush" asarida bunday farzandlarning hayoti fojia bilan tugashi mumkinligini ko'rsatadi. Shu orqali u jamiyatning ikkala tomonini ham tanqid qilib, XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatini ogohlantirishga harakat qiladi.

Asarda ota va bola o'rtasidagi munosabatlarni yoritish orqali millatning umumiy muammolariga diqqatni qaratgan. O'sha davrda tarbiyaning yetishmovchiligi, ilmsizlik va jaholat sabab ko'plab oilalarda qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Bu muammolar badiiy obrazlar orqali ochib berilgan bo'lib, xalqni ogohlikka, ma'rifatga chaqirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi muallif tomonidan o'ziga xos tarzda taqdim etilgan bo'lib, u kitobxonlar uchun asarning mohiyatini ochib beruvchi muqaddima bilan boshlanadi. Asar sarlavhasidan keyin qavs ichida muallif uning janri va mavzusini "Turkiston maishatidan olingan ibratnoma"² deb belgilagan. Ushbu ta'rif asarning milliy hayotdan olingan real voqealar asosida yaratilganini va unda jamiyat uchun muhim bo'lgan ibratli xulosalar mavjud ekanini anglatadi. Muallif asarni "3 parda 4 manzaradan iborat milliy birinchi fojia"³ deb atab, Turkiston teatrlari uchun

² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mahmudxo-ja-behbudiyn-1875-1919/mahmudxo-ja-behbudiyn-padarkush-drama>. 08.02.2025

³ Z.Abdirashidov. / Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiyn. [Matn]: risola – T.: Yoshlar nashriyot uyi, – B.53.

yangi badiiy shakl yaratganini e'lon qiladi. "Padarkush" o'z davrida nafaqat yangi janrni boshlab bergan, balki jamiyatning dolzarb muammolarini ham sahnaga olib chiqib, xalqni ma'rifatga chorlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Asarda harakat qiluvchi bosh qahramonlar jamiyatning turli qatlamlari va ularning dunyoqarashlarini aks ettiradi. Ular orasida: Boy – 50 yoshda, eski tuzum tarafdori, tarbiya masalasida mas'uliyatsiz otaning timsoli. Toshmurod – Boyning 15-17 yoshdagi o'g'li, tarbiyasizlik va beparvolik tufayli halokatga yuz tutgan yosh avlod vakili. Domullo – 30-40 yoshdagi yangi fikrlarga ega bo'lgan mulla, isloh va ma'rifat tarafdori. Ziyoli – Yevropa libosida, rus tilida o'qigan, zamonaviy dunyoqarashli millatchi musulmon. Bu obrazlar orqali Behbudiy Turkiston jamiyatidagi muammolarni ochib beradi. Eski tuzum va yangi ma'rifat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, tarbiyaga e'tiborsizlik natijasida yuzaga keladigan fojialar asarning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Asarning asosiy qahramonlaridan biri bo'lgan Toshmurod o'zining noto'g'ri yo'lni tanlashi va tarbiyadan yiroq o'sishi sababli halokatli taqdirga duch keladi. Toshmurod yomon muhit va maishatparastlikka berilib, oxir-oqibat sheriklari bilan birgalikda otasining yashirib qo'ygan pulini o'g'irlamoqchi bo'ladi. Ammo bu vaqtda otasi voqeadan xabardor bo'lib qoladi. Sheriklari qo'lga tushmaslik uchun otasiga daf'atan pichoq urishadi. Bu voqea Toshmurod uchun halokatli yakun bilan tugaydi, u otasidan ham, uning davlatidan ham mahrum bo'ladi va qamoqqa olinadi. Behbudiyning fikricha, ta'lim-tarbiyadan mahrum bo'lgan, jamiyatdagi muammolar girdobida ulg'aygan bolani aynan shunday fojiali kelajak kutishi yoritib bergan. Dramaning asosiy xulosasi shundaki, tarbiya va ta'lim, mas'uliyatsiz otalar va jamiyatdagi muammolarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Behbudiy asar orqali nafaqat o'z davrining dolzarb muammolarini ko'taradi, balki yosh avlodni tarbiyalashda ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlab, ota-onalar va jamiyatni o'ylantiradigan ibratli bir saboq beradi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi matbuot va sahna yuzini ko'rishi og'ir kechdi. O'sha davrda har bir gazeta va kitob chor hukumati tomonidan

maxsus ruxsat olgandan keyingina chop etilishi mumkin edi. Shu sababli Behbudiy ham o'z asarini risola shaklida nashr qilish va sahnalashtirish uchun chor ma'murlaridan ruxsatnoma olishga majbur edi.

Manbalarga ko'ra, "Padarkush" dramasi 1911-yilda yozilgan bo'lsa-da, Behbudiy asarni biroz takomillashtirib, 1912-yilning avgustida nashrga tayyorlagan. Dastlabki chop etilish jarayonida muallif asarni o'sha davrning siyosiy talablariga moslashtirishga harakat qilgan. U kitobni "Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lish yubileyiga bag'ishlangan"⁴ deb ko'rsatgan. Bu usul yordamida asarni senzura to'sig'idan o'tkazish osonroq bo'lgan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi ma'lum to'siqlardan keyin chop etilishi va sahnaga qo'yilishi o'z davrining muhim voqealaridan biri bo'ldi. Asar dastlab Buxoroda chiqayotgan "Turon" gazetasining 1913-yil 1 va 3-yanvar sonlarida bosila boshlagan bo'lsa-da, gazetaning yopilishi sababli uning oxirgi qismlari nashr qilinmay qoladi. "Padarkush" Samarqand harbiy gubernatori general-mayor Ilya Oleynichenkoning yordami va Tiflis matbuot ishlari qo'mitasining 1913-yil 23-iyul sanasidagi ruxsati bilan Samarqanddagi Gazarov va Siyanov matbaasida to'liq shaklda nashr etiladi. O'sha davrda na Toshkentda, na Samarqandda milliy teatr truppalari shakllangan edi, bu esa asarni sahnalashtirish jarayonini ancha kechiktirdi. Asar 1914-yil 15-yanvar kuni Samarqandda, shu yilning 16-fevral kuni esa Toshkentda, Kolizey teatrida sahnaga qo'yildi⁵. Ushbu hodisalar nafaqat Behbudiy ijodida, balki o'zbek teatri tarixida ham muhim voqea bo'ldi. "Oyna" jurnalining 1914-yil 14-25-yanvar sonida asarning Samarqanddagi premyerasi haqida quyidagicha yozilgan edi: "Padarkush fojiasi ila "Aldadik va aldandik" voqeasi sahnaga qo'yildi. "Padarkush"ning nihoyatda yaxshi amalga qo'yulg'oni hozir bo'lg'on har bir kishining roziligidan ma'lum edi. Xalq nihoyatda ko'p kelib, bilet yetishmaganligi va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi. Ibratxonaning o'rinlari 320 nafarga kifoya qilar edi. Yana ellik nafar o'rin hozirlangan bo'lsa ham kifoya etmadi"⁶.

⁴ N.Karimov / Mahmudxo'ja Behbudiy. – T.: O'zbekiton, 2011. – B.43.

⁵ Begali Qosimov / Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. – T.: "Sharq", – B.15.

⁶ "Oyna" jurnali. 1914-yil 14-son.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ilmiy merosi yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. U yangi usuldagi maktablar asoschisi sifatida zamonaviy va milliy ta‘limni uyg‘unlashtirishga intilib, yoshlarni bilimli, ma‘naviy tarbiyali qilishni maqsad qilgan. Behbudiy yozgan darsliklar va asarlar, xususan, “Padarkush” dramasi, ta‘lim va tarbiyaning o‘ta muhim ekanligini ko‘rsatib, ota-onalarni mas‘uliyatli bo‘lishga chaqiradi.

Behbudiy yoshlarni ilm olish, mustaqil fikrlash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni asosiy vazifa deb bilgan. Uning ma‘rifatparvarlik faoliyati yosh avlodni jaholat va mutaassiblikdan uzoqlashtirib, ularni o‘z milliy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Behbudiy merosi yoshlarning ma‘naviy-axloqiy kamoloti va millat ravnaqida bebaho manba bo‘lib, u bugungi kunda ham tarbiya va ta‘lim sohasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. N.Karimov / Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: O‘zbekiton, 2011. – 80 b.
2. Z.Abdirashidov. / Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. [Matn]: risola – T.: Yoshlar nashriyot uyi, – 156 b
3. Begali Qosimov / Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. – T.: “Sharq”, – 160 b.
4. “Oyna” jurnali. 1914-yil 14-son.
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mahmudxo-ja-behbudiy-1875-1919/mahmudxo-ja-behbudiy-padarkush-drama>